

POLITEKNIKUMLARDA INGLIZ TILI DARSLARINI ESP YONDASHUVI ASOSIDA O'QITISHNING SAMARALI USULLARI

S.J.Davronboyeva

*Xorazm viloyati Shovot tumani 2-son
Politexnikumi ingliz tili fani o'qituvchisi
sevinchdavronbayeva@gmail.com*

Annotatsiya: *Ushbu maqolada texnikumlarda ingliz tili fanini ESP (English for Specific Purposes) yondashuvi asosida o'qitishning afzalliklari hamda zarurati yoritiladi. Tadqiqotning asosiy maqsadi — asosan "Avtomobillarni ta'mirlash va ularga texnik xizmat ko'rsatish" yo'nalishida o'qiyotgan talabalar uchun kasbiy ehtiyojlarga moslashtirilgan ingliz tili darslarini samarali tashkil etishdir. Maqolada ESPning samaradorligi, texnikum talabalarining xorijiy tilga bo'lgan ehtiyojlari va pedagogik yondashuvlar tahlil qilindi. Natijalar shuni ko'rsatadiki, texnik mazmunga asoslangan mashg'ulotlar o'quvchilarning motivatsiyasi va kasbiy savodxonligini sezilarli oshiradi. Xulosa sifatida texnikumlarda ESP metodikasini joriy etish ta'lim sifatini oshirishda muhim omil ekani ta'kidlandi.*

Kalit so'zlar: *ESP, texnikum, kasbiy ingliz tili, ehtiyojlar tahlili, til kompetensiyasi, texnik leksika.*

KIRISH

Bugungi kunda texnika yo'nalishida o'qiyotgan mutaxassislar uchun ingliz tilini bilish — global mehnat bozorida muvaffaqiyatning muhim sharti hisoblanadi. Mashhur pedagogik mutaxassis Robert Stivenzon ta'kidlaganidek, "Tilni o'rganish — bu imkoniyat eshiklarini ochishdir." Texnikum o'quvchilari uchun bu imkoniyatlar yanada kengroq, chunki ular nafaqat umumiy ingliz tilini, balki kasbiy matnlar, texnik terminlar, yo'riqnomalar va ishlab chiqarish jarayonlariga oid nutq bilan ishlashlari zarur. Bundan tashqari O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligining 2025-yil 18-avgustdagi 47-son qarori bo'yicha chet tili soatlari keskin ravishda 180 soatdan 600 soatga oshirildi. Bundan ko'zlangan maqsad o'quvchiga o'zi o'qiyotgan yo'nalishi bilan bir qatorda tilni ham o'rgatib nafaqat O'zbekiston balki butun Yevropa mehnat bozorida yetuk kadrlar tayyorlashdan iborat.

Maqolaning dolzarbligi shundaki, an'anaviy ingliz tili darslari texnik mutaxassislarning real ehtiyojlarini qondira olmaydi. Bundan tashqari milliy va xalqaro sertifikatga ega bo'lish ham o'quvchining aynan sohasida erkin so'zlasha olishiga kafolat bera olmaydi. Shu sababli ESP — ya'ni ma'lum bir kasbga yo'naltirilgan ingliz tilini o'qitish yondashuvi — politexnikum va texnikumlarda ta'lim jarayonini yanada samarali qilish imkonini beradi. Ushbu maqola texnikum o'quvchilari uchun ESP asosida dars tashkil etishning usullari va konseptlarini yoritishga qaratilgan.

ASOSIY QISM

1. ESP yondashuvining mohiyati

ESP — bu o‘quvchining kasbiy ehtiyojlarini chuqur tahlil qilgan holda, til materialini maqsadli va real amaliy vazifalar asosida o‘rgatish metodikasi. Texnikum o‘quvchilari uchun bu yo‘nalish texnik terminologiya, kasbiy hujjatlar, diagrammalar, mashina qismlarining ta’rifi va texnik jarayonlarni tushuntirishni o‘z ichiga oladi.

2. Politexnikum va texnikum o‘quvchilarining ehtiyojlar tahlili

ESP darslarini tashkil etishda birinchi qadam — needs analysis, ya’ni talabalar o‘rganishi kerak bo‘lgan kasbiy vazifalarni aniqlashdir. Texnikum talabalari uchun quyidagi ehtiyojlar eng muhim hisoblanadi:

- *texnik yo‘riqnomalarni tushunish;
- *mashina va mexanizmlar tuzilishini ingliz tilida izohlash;
- *kasbiy muloqot (usta–shogird suhbatlari);
- *texnik xavfsizlik qoidalarini ingliz tilida o‘qish;
- *kasbiy matnlar bilan ishlash.

3. ESP asosidagi samarali metodlar

Texnikum sharoitida ingliz tilini o‘rgatishda quyidagi yondashuvlar o‘zini yaxshi oqalaydi:

a) Modellastirilgan real vaziyatlar

Talabalar texnik nosozliklarni izohlash, qurilma qismlarini tariflash, mashina ishlash jarayonini tushuntirish kabi amaliy vazifalarni bajaradilar.

b) Autentik materiallardan foydalanish

Video yo‘riqnomalar, texnik kataloglar, servis markazlaridan olingan real matnlar darsni jonli qiladi.

c) Terminologik lug‘at bilan ishlash

Har bir mavzuda 10–15 ta asosiy texnik termin ustida ishlash talabalar nutqini mustahkamlaydi.

d) Amaliy topshiriqlar

- mashina qismlarini ta’riflash;
- texnik jarayon diagrammasini inglizcha tushuntirish;
- ustaga murojaat qilish dialogini tuzish;
- xavfsizlik qoidalarini inglizcha bayon qilish.

4. ESP ta’limining afzalliklari

- *o‘quvchilarning motivatsiyasi oshadi;
- *kasbiy savodxonlik rivojlanadi;
- *mehnat bozorida raqobatbardoshlik kuchayadi;
- *talabalar darsdan amaliy foyda ko‘radi;
- *til o‘rganish jarayoni ma’lum bir maqsadga bog‘lanadi.

XULOSA

Texnikumlarda ingliz tilini ESP yondashuvi asosida o‘rgatish o‘quvchilarni kelajak kasbiy faoliyatiga tayyorlashda eng samarali usullardan biridir. Ehtiyojlar tahlilining to‘g‘ri tashkil etilishi, autentik materiallardan foydalanish, amaliy mashqlar va terminologik lug‘at bilan tizimli ishlash talabaning kasbiy kommunikativ kompetensiyasini sezilarli darajada rivojlantiradi. Xulosa qilib aytganda, ESP metodikasini texnikumlarda joriy etish ta’lim



sifatini oshiradi va yosh mutaxassislarning global mehnat bozoriga moslashuvchan bo‘lishiga xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Shavkat Mirziyoyev. Yangi O‘zbekiston taraqqiyot strategiyasi. ”O‘zbekiston” nashiyoti. 2023. 416.B.
2. O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligining 2025-yil 18-avgustdagi 47-son qarori.
3. Basturkmen, H. (2010). Developing Courses in English for Specific Purposes. Palgrave Macmillan.
4. Bathia, V., Anthony, L., & Noguchi, J. (2011). ESP in the 21st century: ESP theory an application today. Proceeding of the JACET 50th Commemorative International Convention (vol.143).
5. Dudley-Evans, T., & St John, M. J. (1998). Developments in English for Specific Purposes. Cambridge University Press.
6. Hutchinson, T., & Waters, A. (1987). English for Specific Purposes: A Learning-Centered Approach. Cambridge University Press.
7. <https://www.academicpublishers.org/journals/index.php/ijai/article/view/2821>